



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-yil 2-son

VOLUME 5 / ISSUE 2 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.2.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Jurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas’ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

E. Sharipov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva, Y. Mahmudov, M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Tasdiqnom

№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 28.04.2025-yilda bosmaxonaga topshirildi.
Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog‘i: 15,8
Adadi: 100. Buyurtma: № 84.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarmasi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

MAS’UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI

J. Blum – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (Boston, AQSh)

M. Vishovatiy – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

X. Xayitov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

I. To‘raboyev – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

S. Xolboyev – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Raxmonkulova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Ne‘matov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» – «Yurisprudensiya» – «Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:

О. Чориев

Редакторы:

Э. Шарипов, Е. Ярмолик, Э. Мустафаев,
К. Абдувалиева, Й. Махмудов,
М. Шарифова, Ш. Бекназарова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387

Свидетельство

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
28.04.2025.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 15,8. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 84.

Отпечатано в типографии

Ташкентского государственного
юридического университета.

100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Хошимхонов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев – доктор философии по юридическим наукам, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев – кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Высшем судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова – доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов – доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров – кандидат филологических наук, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

E. Sharipov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev,
K. Abduvalieva, Y. Makhmudov,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

Certificate

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 28.04.2025.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 15,8.

Units: 100. Order: № 84.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITOR-IN-CHIEF

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

A. Khoshimkhonov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Akhmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Kh. Khayitov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

S. Kholboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Rakhmonkulova – Associate Professor of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne'matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 8 **ALIYEV ILHOMJON MUROD O'G'LI**
Sun'iy intellekt texnologiyalarini O'zbekiston Respublikasi adliya organlari faoliyatiga tatbiq etish

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 17 **RUSTAMBEKOV ISLAMBEK RUSTAMBEKOVICH, GULYAMOV SAID SAIDAXRAROVICH**
Zamonaviy kiberkorupsiya: tushunchasi, muammolari va Markaziy Osiyo hududida unga qarshi kurashish choralari
- 30 **JUMAG'ULOV ALISHER ERNAPASOVICH**
Sukuk: yangi huquqiy institutga tarixiy nazar
- 38 **INOYATOV NODIRBEK XAYITBOY O'G'LI**
Sun'iy intellekt va avtonom transport vositalari: raqamli davrda huquq subyektiligi masalalari
- 47 **KAN YEKATERINA EDUARDOVNA**
Sog'liqni saqlash sohasida sun'iy intellektni joriy etishdagi normativ to'siqlar
- 55 **SAIDOV BOBUR BAXROMJONOVICH**
Metaolamlarni huquqiy tartibga solish: virtual dunyoda yurisdiksiya va intellektual mulkni himoya qilish masalalari
- 81 **NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA**
AQShda robot-maslahatchilar faoliyatini tartibga solish xususiyatlari
- 91 **NURULLAYEV UMIDBEK XUDAYBERDIYEVICH**
O'zbekiston va xorijiy davlatlar qonunchiligida axborot vositachisining huquqiy maqomi masalalari

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 101 **ABDULLAYEVA RISOLAT SUNNATOVNA**
Chet el fuqarolari bilan nikohni qayd etish masalalari va bu boradagi xalqaro qonunchilik asoslari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 111 **ABDUSAMADOVA ZARINA SHOBIDDIN QIZI**
Xorijiy mamlakatlarda yer servitutining turlari va ularning huquqiy tabiati
- 125 **TURDIYEV BOBIR SOBIROVICH**
Atrof-muhitga oid qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki: xalqaro standartlar va xorij tajribasi

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 141 **RAXMANOV SHUXRAT NAIMOVICH**
Xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqining umumiy xalqaro huquq tizimidagi o'ri: nazariy-metodologik yondashuvlar

12.00.13 – INSON HUQUQLARI

- 150 **NOSIROVA MARJONA NEGMAT QIZI**
Inson huquqlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtiroki tushunchasi va tavsifi

12.00.14 – HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH.
PROBATSIIYA FAOLIYATI

- 161 **XO'JAMBERDIYEV FARRUX KOMILOVICH**
Jamoat xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirish: Turkiya tajribasi va O'zbekiston uchun istiqbollar

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО.
ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

8 АЛИЕВ ИЛХОМЖОН МУРОД УГЛИ

Внедрение технологий искусственного интеллекта в деятельность органов юстиции
Республики Узбекистан

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО.
МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

17 РУСТАМБЕКОВ ИСЛАМБЕК РУСТАМБЕКОВИЧ, ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ

Современная киберкоррупция: понятие, проблемы и пути противодействия
в Центральноазиатском регионе

30 ЖУМАГУЛОВ АЛИШЕР ЭРНАПАСОВИЧ

Сукук: исторический взгляд на новый правовой институт

38 ИНОЯТОВ НОДИРБЕК ХАЙИТБОЙ УГЛИ

Искусственный интеллект и автономные транспортные средства: вопросы правовой
субъектности в цифровую эпоху

47 КАН ЕКАТЕРИНА ЭДУАРДОВНА

Нормативные барьеры внедрения искусственного интеллекта в здравоохранении

55 САИДОВ БОБУР БАХРОМЖОНОВИЧ

Правовое регулирование метавселенных: вопросы юрисдикции и защиты интеллектуальной
собственности в виртуальных мирах

81 НАБИРАЕВА ЗАРНИГОР АКМАЛОВНА

Особенности регулирования деятельности роботов-консультантов в США

91 НУРУЛЛАЕВ УМИДБЕК ХУДАЙБЕРДИЕВИЧ

Правовой статус информационного посредника в законодательстве Узбекистана и зарубежных стран

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ
ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

101 АБДУЛЛАЕВА РИСОЛАТ СУННАТОВНА

Вопросы регистрации браков с иностранными гражданами и международно-правовые основы
в этой сфере

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

111 АБДУСАМАДОВА ЗАРИНА ШОБИДДИН КИЗИ

Типы сервитутов в зарубежных странах и их правовая природа

125 ТУРДИЕВ БОБИР СОБИРОВИЧ

Участие общественности в принятии решений, касающихся окружающей среды:
международные стандарты и зарубежный опыт

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

141 РАХМАНОВ ШУХРАТ НАИМОВИЧ

Место дипломатического права международных организаций в системе международного права:
теоретико-методологические подходы

12.00.13 – ПРАВА ЧЕЛОВЕКА

150 НОСИРОВА МАРЖОНА НЕГМАТ КИЗИ

Понятие и характеристика участия некоммерческих негосударственных организаций
в защите прав человека

12.00.14 – ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ
БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

161 ХУЖАМБЕРДИЕВ ФАРРУХ КОМИЛОВИЧ

Совершенствование обеспечения общественной безопасности: опыт Турции и перспективы для
Узбекистана

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

- 8 **ALIEV ILKHOMJON MUROD UGLI**
Implementation of artificial intelligence technologies in the activities of the justice authorities of the Republic of Uzbekistan

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 17 **RUSTAMBEKOV ISLAMBEK RUSTAMBEKOVICH, GULYAMOV SAID SAIDAKHRAROVICH**
Modern cybercorruption: concept, challenges, and countermeasures in the Central Asian region
- 30 **JUMAGULOV ALISHER ERNAPASOVICH**
Sukuk: a historical view of the new legal institution
- 38 **INOYATOV NODIRBEK KHAYITBOY UGLI**
Artificial intelligence and autonomous vehicles: issues of legal subjectivity in the digital era
- 47 **KAN EKATERINA EDUARDOVNA**
Regulatory barriers to the implementation of artificial intelligence in healthcare
- 55 **SAIDOV BOBUR BAKHROMJONOVICH**
Legal regulation of metaverses: issues of jurisdiction and intellectual property protection in virtual worlds
- 81 **NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA**
Features of regulating robo-advisors in the USA
- 91 **NURULLAEV UMIDBEK KHUDAYBERDIYEVICH**
Issues of the legal status of an information intermediary in the legislation of Uzbekistan and foreign countries

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

- 101 **ABDULLAEVA RISOLAT SUNNATOVNA**
Issues of marriage registration with foreign citizens and the foundations of international legislation in this regard

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 113 **ABDUSAMADOVA ZARINA SHOBIDDINOVNA**
Types of servitudes in foreign countries and their legal nature
- 125 **TURDIEV BOBIR SOBIROVICH**
Public participation in environmental decision-making: international standards and foreign experience

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

- 141 **RAKHMANOV SHUKHRAT NAIMOVICH**
The role of the diplomatic law of international organizations in the general system of international law: theoretical and methodological approaches

12.00.13 – HUMAN RIGHTS

- 150 **NOSIROVA MARJONA NEGMAT KIZI**
The concept and descriptions of the participation of non-governmental non-profit organizations in the protection of human rights

12.00.14 – CRIME PREVENTION. ENSURING PUBLIC SAFETY. PROBATION ACTIVITY

- 161 **KHUJAMBERDIYEV FARRUKH KOMILOVICH**
Improving public safety ensuring: the experience of turkey and prospects for Uzbekistan

Kelib tushgan / Получено / Received: 22.03.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 19.04.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 28.04.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.2./ECZK6798

UDC: 34:[004.8+004.031.2](045)(575.1)

SUN'IY INTELLEKT VA AVTONOM TRANSPORT VOSITALARI: RAQAMLI DAVRDA HUQUQ SUBYEKTLILIGI MASALALARI

Inoyatov Nodirbek Xayitboy o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Kiber huquq kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0009-0004-2958-203X
e-mail: Nodir_Inoyatov@tsul.uz

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy jamiyatda sun'iy intellekt tizimlarining va avtonom transport vositalarining huquqiy maqomi masalasi tadqiq etilgan. Maqolada huquqiy subyektliligi tushunchasi va uning tarixiy evolyutsiyasi, sun'iy intellektning huquqiy maqomiga doir xalqaro tajriba, shuningdek, O'zbekiston qonunchiligidagi mavjud normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" va "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunlar, shuningdek, avtonom transport vositalari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik masalalari kompleks o'rganilgan. Tadqiqot natijasida, sun'iy intellektga "elektron shaxs" maqomini berish konsepsiyasi muhokama etilib, avtonom transport vositalari uchun maxsus huquqiy rejim yaratish zarurligi asoslab berilgan. Maqolada avtonom transport vositalari bilan bog'liq huquqbuzarliklar va zarar yetkazish holatlari statistikasi tahlil qilinib, jahonda 45 dan ortiq mamlakatlarning sun'iy intellekt sohasidagi qonunchilik tajribasi o'rganilgan. Shuningdek, ishda terminologik nomuvofiqlik, empirik ma'lumotlar yetishmasligi va interdistsiplinar yondashuvning murakkabligi kabi ilmiy muammolar ko'rib chiqilgan. Maqolada texnologik neytrallik, xavfsizlik ustuvorligi va javobgarlik tizimining aniq belgilanishi tamoyillariga asoslangan yondashuv taklif etilgan. Bundan tashqari, "elektron shaxs fondi" konsepsiyasini O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan modelda taklif etilgan bo'lib, xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish zarurligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, huquqiy subyektlilik, avtonom transport vositalari, elektron shaxs, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, huquqiy status, raqamli davr, fuqarolik huquqi, huquqiy fiksiya

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И АВТОНОМНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ СРЕДСТВА: ВОПРОСЫ ПРАВОВОЙ СУБЪЕКТНОСТИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ

Иноятлов Нодирбек Хайитбой угли,
преподаватель кафедры «Киберправо»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной научной статье исследуется проблема правового статуса систем искусственного интеллекта и автономных транспортных средств в современном обществе. В статье рассматриваются понятие правосубъектности и его историческая эволюция,

международный опыт в вопросах правового статуса искусственного интеллекта, а также действующие нормативно-правовые акты Узбекистана, в частности Гражданский кодекс Республики Узбекистан, Законы «О персональных данных» и «О страховой деятельности», а также вопросы ответственности за ущерб, причинённый автономными транспортными средствами. В результате исследования обсуждается концепция предоставления искусственному интеллекту статуса «электронной личности» и обосновывается необходимость создания специального правового режима для автономных транспортных средств. Также анализируются статистические данные о правонарушениях и случаях причинения ущерба с участием автономных транспортных средств, а также изучается законодательный опыт в области регулирования искусственного интеллекта более чем 45 стран. Кроме того, в работе рассматриваются научные проблемы, такие как терминологические несоответствия, недостаточность эмпирических данных и сложность междисциплинарного подхода. В статье предлагается подход, основанный на принципах технологической нейтральности, приоритета безопасности и чёткого определения системы ответственности. Также выдвинута адаптированная для условий Узбекистана модель концепции «фонда электронной личности» и подчёркнута необходимость имплементации международных стандартов в национальное законодательство.

Ключевые слова: искусственный интеллект, правосубъектность, автономные транспортные средства, электронная личность, гражданско-правовая ответственность, правовой статус, цифровая эпоха, гражданское право, правовая фикция

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND AUTONOMOUS VEHICLES: ISSUES OF LEGAL SUBJECTIVITY IN THE DIGITAL ERA

Inoyatov Nodirbek Khayitboy ugli,
Lecturer at the Department of Cyber Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. This scientific article examines the legal status of artificial intelligence systems and autonomous vehicles in modern society. The article comprehensively examines the concept of legal personality and its historical evolution, international experience in the legal status of artificial intelligence, as well as existing regulatory legal acts in the legislation of Uzbekistan, including the Civil Code of the Republic of Uzbekistan and the Laws “On Personal Data” and “On Insurance Activities,” as well as issues of liability for damage caused by autonomous vehicles. As a result of the research, the concept of granting artificial intelligence the status of an “electronic person” was discussed, and the need to create a special legal regime for autonomous vehicles was substantiated. The article analyzes the statistics of violations and damage caused by autonomous vehicles and examines the legislative experience of more than 45 countries in the field of artificial intelligence. The paper also examines such scientific problems as terminological inconsistency, the lack of empirical data, and the complexity of the interdisciplinary approach. The article proposes an approach based on the principles of technological neutrality, security priority, and a clear definition of the system of responsibility. In addition, the concept of the “electronic person fund” was proposed in a model adapted to the conditions of Uzbekistan, and the need to implement international standards into national legislation was emphasized.

Keywords: artificial intelligence, legal subjectivity, autonomous vehicles, electronic person, civil liability, legal status, digital era, civil law, legal fiction

Kirish

Zamonaviy jamiyatda sun’iy intellekt ti-
zimlari va avtonom transport vositalari kun-

dalik hayotimizga jadal sur’atlar bilan kirib
kelmoqda. “Boston Consulting Group” ma’lu-
motlariga ko’ra, 2035-yilga kelib global av-

tomobil bozorining 25 foizini avtonom transport vositalari tashkil etishi kutilmoqda [1]. Bu texnologik taraqqiyot iqtisodiy, ijtimoiy hamda huquqiy sohalarda tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. E. Antoniosning ta'kidlashicha: "Sun'iy intellekt va avtonom transport vositalari nafaqat transport sohasidagi inqilob, balki huquqiy tizimlar uchun ham paradigma o'zgarishi hisoblanadi" [2]. Mazkur o'zgarishlar huquq nazariyasi va amaliyotida bir qator muhim savollarni keltirib chiqarmoqda.

Aksariyat davlatlar, jumladan, O'zbekiston qonunchiligida ham sun'iy intellekt tizimlari va avtonom transport vositalarining huquqiy maqomi hali aniq belgilanmagan. J. Bryson ta'kidlaganidek: "Huquqiy subyektilik masalasi – sun'iy intellekt sohasida eng muhim va murakkab yuridik masalalardan biri" [3]. Ayniqsa, avtonom transport vositalari misolida javobgarlik, sug'urta tizimi va huquqiy subyektilik masalalaridagi noaniqliklar bu mavzuning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – sun'iy intellekt, xususan, avtonom transport vositalarining huquqiy subyektilik masalalarini kompleks tahlil qilish, xalqaro tajribani o'rganish hamda O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. U. Pagallo ta'kidlaganidek: "Sun'iy intellekt tizimlarining huquqiy subyektiligi masalasi mamlakatlar qonunchiligida bir xil yechim topmagan bo'lsa-da, har bir davlat o'z huquqiy tizimining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda batafsil huquqiy tartibga solish zaruriyati bilan yuzma-yuz kelmoqda" [4].

Yechilishi lozim bo'lgan asosiy masalalar quyidagilardan iborat:

- Sun'iy intellekt va avtonom transport vositalariga huquq subyekti sifatida qanday huquqiy maqom berilishi kerak?

- Avtonom transport vositalari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik masalalarini qay tarzda taqsimlash mumkin?

- O'zbekiston qonunchiligida qanday huquqiy mexanizmlar yaratilishi zarur?

Sun'iy intellekt tizimlari va avtonom transport vositalarining huquqiy subyektiligi masalasiga turli olimlar turlicha yondashuv bildirganlar. Masalan, R. Calo o'z tadqiqotlarida sun'iy intellekt tizimlarini faqat fuqarolik huquqining obykti sifatida o'rganish yetarli emasligini ta'kidlab, ularning avtonomlikka ega ekani va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini inobatga olish lozimligini ilgari suradi [5]. Gunther Teubner esa aksincha, sun'iy intellekt tizimlariga to'liq huquqiy subyektilik maqomini berishdan ko'ra, ularni maxsus huquqiy mexanizmlar orqali tartibga solish maqsadga muvofiq degan pozitsiyani himoya qiladi [6]. J. Turner va hammualliflar esa o'z tadqiqotlarida avtonom transport vositalari uchun alohida, maxsus huquqiy rejim joriy etish zarurligini asoslab beradilar [7].

M.U. Scherer sun'iy intellektning huquqiy maqomini o'rganishda qiyosiy-huquqiy metodni qo'llagan holda turli mamlakatlar tajribasini tahlil qiladi [8]. M.A. Lemley va B. Casey esa tarixiy va evolyutsion yondashuvlarni qo'llab, huquq subyektiligi tushunchasining tarixiy rivojlanishini va sun'iy intellektga qo'llanishi mumkin bo'lgan huquqiy imkoniyatlarni o'rganadilar [9]. Shuningdek, Yevropa Parlamenti tomonidan 2017-yilda qabul qilingan "Fuqarolik huquqi bo'yicha robotika qoidolari" hujjatida sun'iy intellektga "elektron shaxs" maqomini berish taklifi muhokama qilinishi, ushbu masalaning global miqyosdagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi [10].

Material va metodlar

Ushbu tadqiqot doirasida sun'iy intellekt tizimlari, xususan, avtonom transport vositalarining huquqiy subyektiligi masalasi keng qamrovli o'rganildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha materiallar to'plandi va tahlil qilindi:

- huquq subyektiligi tushunchasi va uning tarixiy evolyutsiyasi;

- huquq subyektiligi tushunchasining tarixiy dinamikasi o'rganilib, uning yuri-

dik shaxslar, davlat organlari va boshqa an'anaviy bo'lmagan huquqiy subyektlarga nisbatan qo'llanishi tahlil qilindi.

S.M. Solaiman ta'kidlaganidek: "Huquq subyektiligi tushunchasi tarixan o'zgaruvchan bo'lib, jamiyat va texnologiyaning rivojlanishi bilan yangi turlarni o'z ichiga qamrab olgan" [11]. Sun'iy intellektning huquqiy maqomi bo'yicha xalqaro tajriba, xususan, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya va boshqa rivojlangan davlatlarning qonunchiligi va sud amaliyoti chuqur tahlil qilindi. Yevropa Ittifoqining 2017-yildagi "Elektron shaxslar" konsepsiyasi, Germaniyaning avtonom transport vositalari to'g'risidagi qonuni, Janubiy Koreyaning "Aqlli robot" huquqiy rejimi kabi huquqiy hujjatlar ham ko'rib chiqildi.

O'zbekiston qonunchiligida sun'iy intellekt va avtonom transport vositalariga oid huquqiy tartibga solish holatining monitoringi shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda mamlakatda sun'iy intellekt va avtonom transport vositalarini bevosita tartibga soluvchi maxsus qonunlar mavjud emas. Biroq bu sohada huquqiy munosabatlarni tartibga solishda qo'llanishi mumkin bo'lgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. Bularga O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Avtomobil transporti to'g'risida"gi, "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi hamda "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunlari kiradi.

Ushbu qonunchilik hujjatlari sun'iy intellekt va avtonom transport vositalari uchun maxsus qoidalarni o'z ichiga olmasa-da, ularning huquqiy holatini tartibga solishda asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonlarining tezlashib borayotgani sababli, O'zbekistonda sun'iy intellekt tizimlarini tartibga soluvchi maxsus qonunchilik bazasini shakllantirish zarurati tobora kuchayib bormoqda. Avtonom transport vositalari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik masalalari bugungi kunda

huquqshunoslar, qonun chiqaruvchilar va ishlab chiqaruvchilar oldida turgan eng murakkab muammolardan biri hisoblanadi. Bu masala bir qator muhim savollarga javob topishni talab qiladi: zarar yetkazilganda kim javobgar bo'ladi – transport vositasi ishlab chiqaruvchisi, dasturiy ta'minot yaratuvchisi, transport vositasi egasimi yoki boshqa subyektmu? Transport vositasi to'liq avtonom rejimda harakatlanayotganda javobgarlik masalasi qanday hal qilinadi? Masalan, avtonom transport vositalarida javobgarlik zanjiri murakkab xususiyatga ega bo'lib, ishlab chiqaruvchi, dastur ta'minotchisi, egasi va boshqa subyektlar o'rtasida taqsimlanishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy huquq tizimlari "risklar zanjiri" konsepsiyasini qo'llash orqali javobgarlikni oqilona taqsimlash mexanizmlarini ishlab chiqishga harakat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari

Avtonom transport vositalarining tarqalishi va ularning huquqiy tartibga solinish dinamikasi haqida gapirganda, jahon miqyosida avtonom transport vositalari bozori jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Litman tadqiqotlariga ko'ra, 2030-yilga kelib, global avtomobil bozoridagi avtonom transport vositalarining ulushi 40 foizga yetishi kutilmoqda [12]. Bu tendensiya o'z navbatida avtonom transport vositalarini huquqiy jihatdan tartibga solish zaruratini kuchaytiradi. O'zbekistonda ham avtonom transport texnologiyalariga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda, ammo ularning huquqiy maqomi hali aniq belgilanmagan.

Sun'iy intellektning huquqiy subyektiligi bo'yicha xalqaro huquqiy standartlar shakllanishi jarayoni so'nggi yillarda faollashib, turli mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan sun'iy intellekt tizimlarini huquqiy tartibga solish maqsadida qonunchilik va normativ hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 2015–2022-yillar orasida sun'iy intellektga oid huquqiy hujjatlar soni

320 foizga oshgan. Bu sohadagi xalqaro standartlashtirish jarayoni jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. ISO/IEC 22989 standartining qabul qilinishi, sun'iy intellekt tizimlarini global miqyosda tartibga solish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

Avtonom transport vositalari bilan bog'liq huquqbuzarliklar va zarar yetkazish holatlari statistikasi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshgan. Bu va boshqa tadqiqotchilarning tadqiqotlariga ko'ra, 2023-yil davomida AQShda avtonom transport vositalari bilan bog'liq 310 dan ortiq yo'l-transport hodisasi qayd etilgan. Bu 2022-yilga nisbatan (273 ta hodisa) 13.5% o'sishni anglatadi. Ayniqsa, to'liq avtonom rejimda ishlaydigan transport vositalari avariylari ulushi ortgani kuzatilgan. Bu holat avtonom transport vositalari bilan bog'liq huquqiy javobgarlik masalalarini aniqlashtirish va maxsus huquqiy mexanizmlar yaratish zaruratini yanada oshirayotganini ko'rsatadi.

Sun'iy intellekt bo'yicha huquqiy me'yorlar qabul qilgan mamlakatlar soni R. Abbott tadqiqotlariga asosan 2023-yil holatiga ko'ra, 45 dan ortiqni tashkil qiladi [13]. Bu sohada Yevropa Ittifoqi, AQSh, Xitoy, Janubiy Koreya va Singapur yetakchilik qilmoqda. O'zbekiston esa bu borada ilk qadamlarni qo'yimoqda.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-amaliy natijalar tahlil qilindi. Birinchidan, sun'iy intellekt va avtonom transport vositalarining huquqiy tabiati va maqomining aniqlanishi. Tadqiqot davomida sun'iy intellekt tizimlarining huquqiy tabiati chuqur o'rganildi. Turli yondashuvlar tahlili asosida sun'iy intellekt tizimlari, xususan, avtonom transport vositalarini huquqiy jihatdan ikki xil kategoriyaga ajratish mumkinligi aniqlandi:

- avtonom transport vositalari – muhim texnologik murakkablikka ega bo'lgan va maxsus huquqiy rejimga ega bo'lishini talab qiluvchi mulk obyekti;

- “elektron shaxs” – cheklangan huquq subyektiligi elementlariga ega bo'lgan yangi turdagi huquqiy konstruktsiya.

Zamonaviy avtonom transport vositalari to'liq mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lmaganligini hisobga olgan holda, ularni to'liq huquq subyekti sifatida tan olish hozirgi bosqichda maqsadga muvofiq emas. Biroq aynan “elektron shaxs” konstruktsiyasini qo'llash orqali, bu vositalar bilan bog'liq javobgarlik masalalarini samarali hal qilish mumkin.

Ikkinchidan, avtonom transport vositalari bilan bog'liq huquqiy muammolar tipologiyasini ishlab chiqish natijasida, avtonom transport vositalari bilan bog'liq huquqiy muammolar to'rt asosiy kategoriyaga ajratildi.

Birinchi kategoriya – javobgarlik masalalari. Bunda ishlab chiqaruvchi, dastur ta'minoti yaratuvchisi va transport vositasi egasi o'rtasidagi javobgarlik taqsimoti masalalari o'rganilgan.

Ikkinchi kategoriya – sug'urta masalalari. Bunda avtonom transport vositalarini sug'urtalashning o'ziga xos jihatlariga e'tibor qaratilgan.

Uchinchi kategoriya – ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish muammolari. Bunda avtonom transport vositalari to'playdigan katta hajmdagi ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash usullari ko'rib chiqilgan.

To'rtinchi kategoriya – axloqiy-huquqiy masalalar. Bunda avtonom transport vositalarining “axloqiy algoritmlari” va qaror qabul qilish mexanizmlari tahlil qilingan.

Ushbu tipologiya avtonom transport vositalari bilan bog'liq huquqiy tartibga solish masalalarini tizimli ravishda hal etishga yordam beradi. Shuningdek, avtonom transport vositalari bilan bog'liq huquqiy muammolar murakkab xususiyatlarga ega bo'lib, an'anaviy huquqiy institutlar doirasida to'liq hal etilishi qiyin. Bu holat yangi va ilg'or huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Muallif o'z fikrini asoslab, turli faktlarni tahlil qiladi va ularning ba'zilarini ma'qullab,

boshqalarini inkor etadi. Sun'iy intellekt va avtonom transport vositalariga huquqiy subyektlilik berish masalasi ilmiy hamjamiyat va qonun chiqaruvchilar o'rtasida qizg'in bahsmunozaralarga sabab bo'layotgan dolzarb mavzu hisoblanadi. Ushbu tadqiqot natijalari asosida bir qancha asosiy xulosalar chiqarildi.

Birinchidan, "elektron shaxs" konsepsiyasining amaliy zaruriyati masalasi. Bir qator olimlar, jumladan, J. Turner [7] va U. Pagallo [4], sun'iy intellektga "elektron shaxs" maqomini berish g'oyasini ilgari surganlar. Ular bu yondashuvni sun'iy intellekt tizimlarining o'ziga xos avtonomligi va qaror qabul qilish qobiliyati bilan asoslaydilar. Shu bilan birga, bu yondashuv zarar yetkazilganda javobgarlikni aniq belgilash mexanizmini taklif qiladi.

Biroq tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, J.J. Bryson va boshqalar [3] tomonidan ilgari surilgan nuqtayi nazarlarga ko'ra, sun'iy intellektga to'liq huquqiy subyektlilik berish zaruratdan ko'ra, sun'iy yaratilgan yuridik fiksiya sifatida qaralishi mumkin. Bunday fiksiya, o'z navbatida, javobgarlikdan bo'yintovlashda uchun qulay mexanizm bo'lib xizmat qilishi mumkin, ammo zarar ko'rgan tomonlarning huquqlarini himoya qilishda samarali bo'lmasligi ehtimoli mavjud. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, avtonom transport vositalari ishtirokidagi hodisalar yuzaga kelganda, javobgarlikni belgilashda, sug'urta kompaniyasi yoki ishlab chiqaruvchi zimmasida bo'lishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, avtonom transport vositalari uchun maxsus huquqiy rejim yaratish zarurati mavjud. M.U. Scherer [8] va Hallevy G. [14] tadqiqotlariga asoslanib, avtonom transport vositalarini to'liq huquqiy subyekt sifatida emas, balki maxsus huquqiy rejimga ega bo'lgan obyekt sifatida tartibga solish mumkin. Bunday yondashuv quyidagi afzalliklarga ega bo'lishi mumkin:

- huquqiy aniqlik ta'minlanadi;
- javobgarlik masalalari aniq belgilanadi;
- zarar ko'rgan tomonlar huquqlarining himoyasi kuchayadi;

– innovatsiyalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilmaydi.

R. Abbott [13] tomonidan ilgari surilgan "elektron shaxs fondi" g'oyasini ilgari surish va uni yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu model avtonom transport vositalari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni taqsimlash va moliyaviy resurslarni oldindan jamg'arish mexanizmini taklif etadi.

Uchinchidan, O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish masalasi. O'tkazilgan tahlil natijasida hamda tadqiqotlarga asoslanib, O'zbekiston qonunchiligini bosqichma-bosqich takomillashtirish zarurati ta'kidlanadi. Bu jarayonda quyidagi tamoyillarga amal qilish muhim:

- texnologik neytrallik (qonunchilik tez o'zgaruvchan texnologiyalarga moslashuvchan bo'lishi);
- xavfsizlik ustuvorligi (avtonom transport vositalari xavfsizligini ta'minlash birlamchi vazifa bo'lishi);
- javobgarlik tizimining aniq belgilanishi;
- xalqaro tajriba va standartlarni inobatga olish.

Tadqiqot davomida yuzaga kelgan ilm-fan doirasidagi to'siq va muammolarni tahlil qilish jarayonida quyidagilar aniqlandi:

1. *Terminologik nomuvofiqlik.* Sun'iy intellekt va avtonom transport vositalari sohasidagi huquqiy terminologiya hali to'liq shakllanmagan. "Sun'iy intellekt", "avtonom transport vositasi", "elektron shaxs" kabi tushunchalarning huquqiy ta'riflari turli manbalarda turlicha talqin qilinadi. G. Hallevy ta'kidlaganidek: "Huquqiy tushunchalarning noaniqligi norma ijodkorligida jiddiy muammolarga olib keladi" [14]. Ushbu muammo ilmiy tadqiqotda tushunchalar apparatini aniq belgilash orqali hal qilindi.

2. *Empirik ma'lumotlar yetishmasligi.* O'zbekistonda avtonom transport vositalari bilan bog'liq statistik ma'lumotlar va sud amaliyoti hali yetarlicha shakllanmagan. Empirik ma'lumotlarsiz nazariy modellar-

ni tekshirish imkoniyati cheklangan bo'ladi. Mazkur muammo xorijiy tajribani chuqur o'rganish va kelajakdagi ehtimoliy holatlarni modellashtirish orqali qisman bartaraf etildi.

3. *Interdistsiplinar yondashuvning murakkabligi.* Sun'iy intellekt va avtonom transport vositalari nafaqat huquqiy, balki texnologik, axloqiy, ijtimoiy va iqtisodiy masala hamdir [15]. Mazkur muammo turli soha mutaxassis-lari ishlari bilan tanishish va kompleks yon-dashuv orqali bartaraf etildi.

4. *Huquqiy tartibga solish va innovatsiya-lar o'rtasidagi muvozanat masalasi.* Naeem Allahrakha ta'kidlaganidek: "Haddan tashqa-ri qattiq huquqiy tartibga solish innovatsion rivojlanishga to'sqinlik qilishi mumkin" [16]. Bu muammo yumshoq huquqiy tartibga so-lish instrumentlarini taklif etish orqali hal qilindi.

Tadqiqot jarayonida qo'llangan metod-lar, turli olimlarning yondashuvlari bilan solishtirilganda, o'ziga xos afzallik va chek-lovlarga ega. Mazkur tadqiqotda qo'llangan qiyosiy-huquqiy metod S.M. Solaiman [11] va M.U. Scherer [8] yondashuvlariga o'xshash bo'lib, turli mamlakatlar tajribasini o'rganishga imkon yaratdi. Biroq G. Teubner [6] ta'kidlaganidek: "Huquqiy transplantat-siya har doim ham samarali bo'lavermaydi, chunki har bir mamlakat o'ziga xos huqu-qiy an'ana va madaniyatga ega". Shu nuq-tayi nazardan, tadqiqotda xorijiy tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirish masala-siga alohida e'tibor qaratildi.

M.A. Lemley va B. Casey [9] qo'llagan tarixiy metodga o'xshash yondashuv or-qali huquq subyektiligi tushunchasining evolyutsiyasi o'rganilgan. Biroq Calo [5] ta'kidlaganidek: "Sun'iy intellekt kabi yangi texnologik hodisalar avvalgi huquqiy katego-riyalarga to'liq mos kelmasligi mumkin". Shu sababli tadqiqotda tarixiy metod bilan birga zamonaviy yondashuvlar ham qo'llangan.

Ushbu tadqiqot natijalari J.J. Bryson va boshqalarning [3] xulosalari bilan ko'p jihat-dan mos keladi, ya'ni sun'iy intellektga to'liq

huquqiy subyektilik berish yuridik va ama-liy muammolarga olib kelishi mumkin. Biroq U. Pagallo [4] tadqiqotidan farqli o'laroq, bu tadqiqot avtonom transport vositalari uchun maxsus huquqiy rejim yaratishni taklif etadi.

R. Abbott [13] tadqiqotida taklif etilgan "elektron shaxs fondi" g'oyasi ushbu tadqi-qotda ham ma'qullangan, biroq O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan modelda taklif eti-ladi. Hallevy G. [14] va J. Turner [7] tadqiqot-larida huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoit-larni inobatga olgan holda, bunday fond sun'-iy intellekt tizimlarining faoliyatidan olina-digan daromadlarni samarali boshqarish va taqsimlash mexanizmiga aylanishi mumkin.

Xulosalar

Sun'iy intellekt, xususan, avtonom tran-sport vositalari zamonaviy huquq tizimida o'ziga xos o'rin egallaydi. Ular mulk obyekti sifatida qaralishi mumkin, lekin avtonomlik darajasi va o'z-o'zini boshqarish qobiliyati-ga ega bo'lishi sababli, ular maxsus huquqiy rejimni talab qiladi. Bu xulosa J.J. Bryson va boshqalar hamda Teubner tadqiqotlari bilan hamohangdir. "Elektron shaxs" konsepsiyasi sun'iy intellekt va avtonom transport vosi-talarining to'liq huquqiy subyektiligi emas, balki cheklangan huquqiy subyektilikni ang-latadi. Bu cheklov avtonom transport vosi-talarining o'z-o'zini anglash qobiliyati yo'qligi va asl intellektga ega emasligi bilan bog'liq-dir. Ushbu xulosa G. Hallevy va S.M. Solaiman tadqiqotlari natijalariga mos keladi.

Avtonom transport vositalari bilan bog'liq javobgarlik masalarini hal etishning op-timal yo'li "risklar zanjiri" konsepsiyasini qo'llashdir. Ushbu konsepsiya transport vo-sitasi ishlab chiqaruvchisi, dasturiy ta'minot yaratuvchisi, egasi va boshqa subyektlar o'rtasida javobgarlikning oqilona taqsimlani-shini ta'minlaydi.

Birinchidan, sun'iy intellekt va avtonom transport vositalarining huquqiy tabiati ikki xil yondashuvda ko'rib chiqilishi mumkin: bi-rinchisi – ular maxsus huquqiy rejimga ega mulk obyekti sifatida; ikkinchisi – "elektron

shaxs” konsepsiyasi doirasida cheklangan huquq subyektliligi elementlariga ega yangi turdagi huquqiy konstruktsiya sifatida. Hozirgi bosqichda avtonom transport vositalari to’liq mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo’lmagani uchun, ularni to’liq huquq subyekti sifatida tan olish maqsadga muvofiq emas.

Ikkinchidan, avtonom transport vositalari bilan bog’liq huquqiy muammolar, jumladan, javobgarlik masalalari, sug’urta masalalari, ma’lumotlar xavfsizligi va axloqiy-huquqiy masalalar kabi kategoriyalarga ajratiladi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun maxsus huquqiy rejim yaratish zarur.

Uchinchidan, O’zbekiston qonunchiligini takomillashtirish jarayonida texnologik neytrallik, xavfsizlik ustuvorligi, javobgarlik tizimining aniq belgilanishi va xalqaro tajriba hamda standartlarni inobatga olish tamoyillariga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Fuqarolik kodeksiga “elektron shaxs” tushunchasini kiritish va uning huquqiy maqomini tartibga soluvchi normalarni qabul qilish orqali sun’iy intellekt tizimlarining huquqiy maqomini yanada aniqlashtirish mumkin. Bu borada xorijiy tajribani, xususan, Yevropa Ittifoqi tajribasini hisobga olish maqsadga muvofiq.

“Elektron shaxs fondi” konsepsiyasi, avtonom transport vositalari tomonidan

yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni taqsimlash va moliyaviy resurslarni avvaldan jamg’arish mexanizmi sifatida O’zbekiston sharoitiga moslashtirilgan modelda taklif etilishi kerak.

Tadqiqot jarayonida yuzaga kelgan terminologik nomuvofiqlik, empirik ma’lumotlar yetishmasligi, interdistsiplinar yondashuvning murakkabligi va huquqiy tartibga solish hamda innovatsiyalar o’rtasidagi muvozanat masalasi kabi ilmiy muammolar ham ko’rib chiqildi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt va avtonom transport vositalarining huquqiy maqomini tartibga solish O’zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega bo’lib, bu sohadagi qonunchilikni bosqichma-bosqich takomillashtirish, xalqaro tajribani o’rganish va milliy huquqiy tizim xususiyatlarini inobatga olgan holda zamonaviy huquqiy mexanizmlarni yaratish zarur.

Sun’iy intellekt va avtonom transport vositalari sohasida xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish kerak. Xususan, ISO/IEC 22989 (Sun’iy intellekt tushunchalari va terminologiyasi), ISO/PAS 21448 (Yo’l transporti vositalari xavfsizligi) va boshqa xalqaro standartlarni o’zlashtirishni jadallashtirish zarur hisoblanadi.

REFERENCES

1. Mosquet X., Andersen M., Arora A. Revolution in the Driver’s Seat: The Road to Autonomous Vehicles. Boston Consulting Group publ., 2020, p. 45.
2. Antonios E. Autonomous Vehicles: Regulatory Challenges and the Response y Challenges and the Response from Germany and UK. *Mitchel Hamline Law Review*, 2020, vol. 46, no. 5, pp. 1105–1121.
3. Bryson J.J., Diamantis M.E., Grant T.D. Of, for, and by the people: the legal lacuna of synthetic persons. *Artificial Intelligence and Law*, 2017, vol. 25, no. 3, pp. 273–291.
4. Pagallo U. The Laws of Robots: Crimes, Contracts, and Torts. Dordrecht, Springer Netherlands, 2013, p. 200.

5. Calo R. Robotics and the Lessons of Cyberlaw. *California Law Review*, 2015, vol. 103, no. 3, pp. 513–563.
6. Teubner G. Rights of Non-humans? Electronic Agents and Animals as New Actors in Politics and Law. *Journal of Law and Society*, 2006, vol. 33, no. 4, pp. 1269–1289.
7. Turner J. Robot Rules: Regulating Artificial Intelligence. London, Palgrave Macmillan, 2019, p. 400.
8. Scherer M.U. Regulating Artificial Intelligence Systems: Risks, Challenges, Competencies, and Strategies. *Harvard Journal of Law and Technology*, 2016, vol. 29, no. 2, pp. 353–400.
9. Lemley M.A., Casey B. Remedies for Robots. *University of Chicago Law Review*, 2019, vol. 86, no. 5, pp. 1311–1396.
10. European Parliament. Resolution of 16 February 2017 with recommendations to the Commission on Civil Law Rules on Robotics. Brussels, 2017, p. 22.
11. Solaiman S.M. Legal personality of robots, corporations, idols and chimpanzees: a quest for legitimacy. *Artificial Intelligence and Law*, 2017, vol. 25, no. 2, pp. 155–179.
12. Litman T. Autonomous Vehicle Implementation Predictions: Implications for Transport Planning. Victoria Transport Policy Institute, 2023, p. 340.
13. Abbott R. The Reasonable Computer: Disrupting the Paradigm of Tort Liability. *George Washington Law Review*, 2018, vol. 86, no. 1, pp. 49–85.
14. Hallevy G. The Criminal Liability of Artificial Intelligence Entities – from Science Fiction to Legal Social Control. *Akron Intellectual Property Journal*, 2016, vol. 4, no. 2, pp. 171–201.
15. Gulyamov S.S., Fayziev R.A., Rodionov A.A., Jakupov G.A., Leveraging Semantic Analysis in Machine Learning for Addressing Unstructured Challenges in Education, 2023 3rd International Conference on Technology Enhanced Learning in Higher Education (TELE), Lipetsk, Russian Federation, 2023, pp. 5–7.
16. AllahRakha N. UNESCO's AI Ethics Principles: Challenges and Opportunities. *International Journal of Law and Policy*, 2024, vol. 2(9), pp. 24–36.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 2-SON

VOLUME 5 / ISSUE 2 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.2.